



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

TRANSFORMATION OF STATE-RELIGION RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE CENTRAL ASIAN REGION

Sardorbek Juraev

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Integration, disintegration, secular state, secularism, atheism, religious blogger, cyber scholar, cyberjihad, cybermujahid, religious diplomacy.

Received: 05.06.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

Abstract: This article reveals the influence of Islam on geopolitical processes in Central Asia, the integrative and disintegrative properties of the religious factor for the region, and the possibilities of its use at the intersection of external interests. In this article, the classical theories of Western and Eastern scholars on state-religion relations, which are still relevant and timeless, as well as the works and conclusions of several scholars from different regions who have conducted research on this topic to date, are studied and comparatively analyzed. Taking into account the possibility of external forces using the religious factor in the event of a situation that threatens sustainable development and integration in the future, preventive measures and proposals are given based on the national interests of the Central Asian region. In this regard, the role of channels operating under the guise of biased, religious propaganda, which are causing various divisions and creating a conflict environment, in influencing the capabilities of today's virtual world and the psychology of the population, is analyzed, and proposals are made to prevent conflicts arising through fanaticism.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI TARAQQIYOTIDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI

Sardorbek Jo'rayev

Tayanch doktoranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Integratsiya, dezintegratsiya, dunyoviy davlat, sekulyarizm, ateizm, diniy bloger, kiber ulamo, kiberjihod, kibermujohid, diniy diplomatiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga islam dinining ta'siri, mintaqqa uchun diniy omilning integratsion va dezintegratsion xususiyatlari hamda tashqi manfaatlarning kesishuvida undan foydalanish ehtimollari ochib beriladi. Bunda, g'arb va sharq allomalarining hozirgacha dolzarb va eskirmas davlat va din munosabatlariga oid klassik nazariyalari hamda bugungi kungacha ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan turli mintaqalardan bir nechta olimlarining asarlari va xulosalari o'rganilib qiyosiy tahlil etiladi. Istiqbolda barqaror rivojlanish va integratsiyaga tahdid tug'diruvchi vaziyatning vujudga kelishida tashqi kuchlarning diniy omildan foydalanish ehtimolini hisobga olib Markaziy Osiyo mintaqasi milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda preventiv chora va takliflar beriladi. Bunda, bugungi virtual olam imkoniyatlari va aholi psixologiyasiga ta'sir ko'rsatishda, turli bo'linishlarga va ziddiyatli muhitni shakllantirishga sabab bo'layotgan g'arazli, diniy targ'ibot niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan kanallarning o'rni tahlil qilinib fanatizm orqali vujudga keluvchi nizolarni oldini olish yuzasidan takliflar beriladi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-РЕЛИГИОЗНЫХ ОТНОШЕНИЙ В РАЗВИТИИ ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОГО РЕГИОНА

Сардорбек Джураев

PhD докторант

Ташкентский государственный университет водоснабжения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интеграция, дезинтеграция, светское государство, секуляризм, атеизм, религиозный блогер, киберученый, киберджихад, кибермоджахед, религиозная дипломатия.

Аннотация: В данной статье раскрывается влияние ислама на геополитические процессы в Центральной Азии, интегративные и дезинтегративные свойства религиозного фактора для региона, возможности его использования на стыке внешних интересов. В этой связи изучаются и сопоставляются классические теории западных и восточных ученых о взаимоотношениях государства и религии, которые по-прежнему актуальны и неподвластны времени, а также труды и

выводы ряда ученых из разных регионов, проводивших исследования по данной теме к настоящему времени. С учетом возможности использования внешними силами религиозного фактора в случае возникновения ситуации, угрожающей устойчивому развитию и интеграции в будущем, даются превентивные меры и предложения, исходя из национальных интересов региона Центральной Азии. В этой связи анализируется роль каналов, действующих под видом предвзятой религиозной пропаганды, вызывающих различные разногласия и создающих конфликтную среду, в воздействии на возможности сегодняшнего виртуального мира и психологию населения, а также вносятся предложения по предотвращению конфликтов, возникающих на почве фанатизма.

Kirish

Ma'lumki, har qanday mamlakat yoki mintaqqa aholisining kundalik hayotida muhim rol o'ynovchi din shu hudud fuqarolarining turmush tarzi va harakterining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Din, jamiyat rivojida muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanib, aholi hayotining turli jabhalariga, jumladan, insonlarning harakteri, axloqiy qadriyatlar asosida shakllangan munosabatlariga, ijtimoiy aloqalar va siyosiy boshqaruvi tizimlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Din dominant bo'lgan mamlakatning (milliy) o'ziga xosligini ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qildi. Bunda e'tiqod qiluvchilarning soni va e'tiqod darajasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uzoq yillar davomida shakllanuvchi jarayon hisoblanadi. Din kuchli birlashtiruvchi omil sifatida e'tiqod qiluvchilarning yoshi, irqi, rangi va ijtimoiy (sinf) holatidan qat'iy nazar ibodat uchun bir safga tizadi. Birlashgan holda o'zaro (bir birlariga) mas'ullik va birodarlik hissini shakllantiradi. Boshqa tomondan qaralganda mazhab va tariqatlar orasidagi tafovutda bag'rikenglik yetishmasligi, har bir e'tiqod qiluvchi o'zi ergashgan yo'lning to'g'ri ekanini ta'kidlab, boshqalarga qarama-qarshi pozitsiyaga o'tib olishi natijasida o'zidan boshqalarni adashganlar sirasiga kiritib o'zlarini ustun qo'yish holatlari kuzatiladi. Sun'iy qo'llab quvvatlashlar orqali nizoli holatlarning kuchayishi va jamiyat orasida parchalanishga sabab bo'lishi ehtimoli ham mavjud. Bu holatning eng nozik tomonlaridan biri esa diniy ulamolar orasidagi bir birlarini yetarli tushunmay fikr bildirish va ijtimoiy tarmoqlarda bloggerlar tomonidan bu vaziyatdan "unumli" foydalanish holatlari hisoblanib din ishlari bo'yicha mas'ul tashkilotlar zimmasiga kibermakonda ogohlikning yangi bosqichida faol bo'lishni talab etadi.

Diniy omil mintaqasi integratsiyasini ta'minlashda asosiy ro'1 o'yamasligi mumkin buni rad etish uchun bir qancha asos va misollar ham mavjud, lekin mintaqaning tarqoq va nobarqaror holatga olib keluvchi vosita sifatida foydalanilmasligini ta'minlash zarurati doimiy dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masala hisoblanadi. Dinning siyosatga ta'siri mavjud ekan davlat diniy jarayonlarni nazorat qilishga majburdir. Bu yerda nazorat tushunchasi xalq manfaatlarini himoya qilgan holda diniy erkinlikning ta'minlanishi va bu erkinlik suiste'mol qilinmasligi uchun olib boriladigan choralardir. Dunyoviy davlatning rasmiy dini mavjud bo'lmay davlat tomonidan hech bir dinga majburlanmaydi va biror din yoki e'tiqod boshqalaridan ustun qo'yilib unga alohida imtiyozlar berilmaydi. Biror dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik xalqning o'z ixtiyorida qoldiriladi. Dunyoviylik prinsipi asosida davlatning diniy neytrallikni saqlashi yotadi. Biroq, ko'pgina mamlakatlar amaliy tajribasidan ma'lumki tarixiy, madaniy yoki siyosiy sabablarga ko'ra yoki aholining aksariyati bir dinga e'tiqod qilishi tufayli tabiiy ravishda konstitutsiyaviy normalar, maxsus qonunlar yoki qarorlar orqali biror dinga ayrim imtiyozlar taqdim etiladi.

Masalan: Turkiya Respublikasi Konstitutsiyaviy jihatdan dunyoviy davlat hisoblansada Davlat Diniy Ishlar Boshqarmasi (Türkiye Diyanet İşleri Başkanlığı) orqali islom dinining sunniylilik mazhabini moliyalashtiradi va nazorat qiladi. Imomlar davlat xizmatchisi sifatida maosh olishadi. Boshqa diniy yo'nalishlar esa, alaviylar yoki pravoslavlari, bunday imtiyozlarga ega emas.

Shveytsariyada ham rasman dunyoviy davlat hisoblansada ba'zi kantonlarda (hududiy birlıklarda) katolik va protestant cherkovlari rasmiy tan olingan va davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Boshqa kantonlarda esa to'liq dunyoviylik tartibi amalda.

AQSh ham Konstitutsiyaviy jihatdan dunyoviy davlat lekin ba'zi shtatlarda masalan Oklaxoma shtatida diniy asosdagi qonunlar qabul qilinmoqda. Ya'ni, nasroniylikni ta'lim tizimiga integratsiya qilishga qaratilgan tashabbuslar mavjud [1].

Gretsiya konstitutsiyasining birinchi bob ikkinchi bo'lim (Cherkov va davlat munosabatlari) uchinchi moddasida Sharqiy pravoslav dinini hukmron din sifatida mustahkamagan bo'lsada [2], ushbu Konstitutsiyasining 13-moddasida [3] diniy qarashlarning erkinligi va daxlsizligi fuqarolarning huquq va erkinliklari diniy e'tiqodidan qat'iy nazar ta'minlanganishi, ma'lum bo'lgan barcha dinlar erkinligi va ularning ibodat marosimlari hech qanday to'siqlarsiz va qonun himoyasida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan

Dunyoviy davlat tushunchasiga doir ta'riflarni umumlashtirgan holda quyidagicha qisqacha ta'rif berish mumkin: diniy birlashmalar davlatdan ajralgan, davlat o'z funksiyalarini bajarilishini diniy birlashmalarga yuklamaydi va barcha diniy birlashmalar qonun oldida teng ekanligi me'yoriy jihatdan mustahkamlanib, hech biriga davlat tomonidan alohida imtiyozlar

berilmaydi. Din va diniy e'tiqodga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari teng hisoblanadi.

Diniy birlashmalar davlat siyosatida bevosita ishtirok etmasligi ularning fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'layotganligini anglatmaydi. Ular diniy vakil sifatida emas balki fuqaro sifatida saylovlarda ishtirok etishlari va davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlariga saylanishlari mumkin. Ushbu qarashlarning keng targ'ib qilinishi va yetkazilishi, fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari to'g'risida tanishtirilishi hamda davlat muassasalari tomonidan ushbu qonunlarning hurmat qilinishi o'zaro iliq kayfiyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Davlat va din munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'pligi sababli mukammal tanlov mavjud emas lekin vaziyat va muhit nuqtai nazaridan kelib chiqib eng optimal tanlovga erishish mumkin. Bu albatta bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga mintaqqa mamlakatlarining davlat boshqaruvida dinga bo'lgan munosabatida (pozitsiyasida) va qo'shni mamlakatlarning ham ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Masalan aholining u yoki bu sohada norozi qatlamining mutlaqo aloqasi bo'lmasada muammolarga yechim sifatida mavjud boshqaruv tizmidan diniy boshqaruv tizimiga o'tishni ko'rsatish holatlari mavjud. Bu qarashlarning asossiz ekanini nazariy va amaliy misollar bilan soadda holda fuqarolarga yetkazilishi yuzasidan masuliyat bugungi ziyoli qatlam oldida turgan asosiy vazifadir.

Xususan, rasman dunyoviy davlat boshqaruv tizimidan iborat mamalakatlardan tashkil topgan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan qo'shni hisoblangan Afg'oniston Islom amirligi (shu bilan birga Eron va Pokiston ham) da kechayotgan jarayonlar va vaziyatning tizimli tahlil etib borilishi, davlat va din o'rtaсидagi munosabatlarni tadqiq etish hamda dunyoviy va diniy davlat shakllarining faoliyati, tuzilishi hamda barqarorligi yuzasidan tadqiqotlar Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy landshaftining shakllanishini oqilona baholashga va qo'shni mamlakat hududida qo'nim topgan ayrim taqiqlangan harakatlarning targ'ibot va tashviqotlariga qarshi immunitet shakllantirish va preventiv choralarini oldindan ko'ra olishga zamin yaratadi.


Tadqiqotning usullari

Ushbu maqolada tarixiylik, ivenç va qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyo geosiyosiy vaziyatining transformatsiyasida diniy omilning o'rni, uning yaqin tarixdagi, bugungi va kelgusidagi holati yuzasidan tadqiqotlar belgilangan.

Natijalar

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining soni 83 millionga yaqinlashib aksariyat qismi ya'ni 87-90% islom diniga e'tiqod qilishadi [4].

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni



Nº	Mamlakat	Aholi soni	Musulmon aholi	Shart
1	O'zbekiston	37 697 787	96-97 %	Asosan sunniy (hanafiy) va oz sonli shialar
2	Qozog'iston	20 316 155	75 %	Asosan sunniy, 0.55 % shialar, 14% xristianlar, 4% dinsizlar, 0,9% esa boshqa
3	Tojikiston	10.499 mln	98 %	Asosan sunnilyik, 5 % shia va so'fiylik)
4	Turkmaniston	7 057.8 ming	96.1%	
5	Qirg'iz Respublikasi	7.3 mln	83 %	15 % xristianlik va boshqa.

Sovet Ittifoqi vaqtidagi dininy ilmlarning to'silishi va tazyqlardan keyin mustaqillik davrida aholining diniy ilmlarga bo'lgan katta ehtiyojini qoplay olish esa oson emas edi. Bu vaziyatda, siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish uchun dindan ta'sirli vosita sifatida foydalanishni ko'zlagan "Turkiston islom harakati" (Sobiq "O'zbekiston islom harakati"), Hizb ut-Tahrir al-Islomiy, Akromiyalar, Tablig' jamoati, Ansorulloh jamoati kabi tashkilotlar yuzaga chiqdi. Ularning ba'zilari qurolli yo'l bilan va terror orqali, boshqalari esa mafkuraviy targ'ibotlar orqali hokimiyatga ta'sir ko'rsatishga harakat qilgan. Bu tashkilotlarning ma'lum qismi hozirda ham siyosiy jihatdan nobarqaror davlatlarda, xususan qo'shni Afg'oniston hududida qo'nim topgani va targ'ibotlarni oson va qulay hisoblangan ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borish imkoniyatlarining paydo bo'lishi va internet olamini nazorat qilishdagi murakkabliklar havotirlanishga asos bo'la oladi.

Diniy hukm va fatvolar maxsus ilm talab etishi, chuqur mantiqiy va asosli manbaalarga tayanish, xususan Qur'on, sunnat (hadislar), ijmo, qiyos ilmini hamda har bir masalaga o'ziga

xos individual yondashuvni talab etadi. Dunyoviy davlat qonunlaridan farqli ravishda bu o‘ziga xoslik turlicha talqin qilish imkoniyatini yaratishi bilan xarakterlanib diniy bilimi chuqr bo‘lmagan va sodda insonlarni adashtirishda foydalanilishi sir emas.

Shu sababli davlat boshqaruv tizimi, Islom davlatlari boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi farqlar va muammolar haqida chuqurroq bilmay turib ko‘rko‘rona yoqlash yoki ergashish tendensiyasi ommalashmasidan davlatlar ilmiy qatlam vakillari orqali aholining ma’naviy immunitetini oshirish ustida doimiy ish olib borishlari talab etiladi.

Markaziy Osiyoda davlat va din munosabatlari nafaqat milliy davlatlar darajasida balki mintaqaviy miqyosda beshta davlat o‘zaro muvofiqlashgan pozitsiyani ta’minalashlari zarur. Shunda ko‘pgina bugungi va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar oldi olinadi. Beshta davlatning diniy ekstremizmga qarshi kurash tajribalari o‘rganilib, birgalikda yanada samarali chora tadbirlar ishlab chiqish zarur. Markaziy Osiyo aholisining diniy ilmga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda Markaziy Osiyoning yuragi hisoblangan va har tomonlama markazda joylashgan O‘zbekistonning imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Bunda Islom sivilizatsiyasi markazida beshta mamlakat ulamolari vakillaridan iborat ittifoq tashkil etilishi va din omilidan foydalangan holda mintaqaning parchalanishiga yo‘l qo‘ymaslik ustida ishlashlari zarur. Albatta dinni siyosiy hokimiyatga yoki aksincha, dunyoviy davlatni dinga qarshi obrazda shakllantirish “amaliyot”larini oldini olish va o‘zaro hamkorlikda davlat boshqaruvini tashkil etishda qolaversa Markaziy Osiyo xalqlari integratsiyasida bu muhim qadam hisoblanadi.

Mintaqadagi islom sivilizatsiyasi meroslaridan foydalangan holda diniy ulamolar pozitsiyasining muvofiqlashtirilishi va hamkorlikni kuchaytirish, xalqlarni ham yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Dinning ijtimoiy integratsiya va birlikni ta’minalashdagi roli inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, tarixda diniy tafovutlar sababli ijtimoiy va etnik nizolar yuzaga kelgan holatlar ham kuzatilganini hisobga olgan holda dinni dunyoviylikka qarshi qo‘llash holatlariga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqishda internet tarmoqlari (kibermakon) imkoniyatlarini inobatga olish zarur.

O‘rta asrlarda islom olamida madrasalar ilm-fanning rivojiga xizmat qilgan bo‘lsa zamонавиy davrda ham diniy ta’lim tizimlari turli jamiyatlarda ma’rifatparvarlik jarayonining muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Din madaniyatlararo muloqot va tinchlik muzokaralarida muhim rol o‘ynashini hisobga olgan holda integratsion jarayonlarda dinding roldan ijobiy foydalana olish imkoniyatlarini tizimli tadqiq etib borish lozim. Bu borada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kadrlar taqchilligi masalasi esa bosqichma-bosqich bir necha yillarda hal etib boriladi.

Boshlag‘ich bosqichdagi bir muammo yoki konflikt turli millatlar orasidagi tafovut bilan qorishib qarama-qarshi kayfiyat yoki etnik diskirminatsiya yuzaga kelmasligi uchun umumiy identiklik imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Yani nizoli holatlarda millatlar o‘rtasidagi farq nizoning jiddiyashuvi va kengayishiga sabab bo‘lish ehtimolini, diniy jihatdan qardoshlik kayfiyati orqali so‘ndirish imkoni mavjud. Xalqlarni yaqinlashtirishda diniy diplomatiya orqali integratsiyani kuchaytirish imkoniyatlari tadqiq etilib amaliyotga joriy etish masalalari o‘rganilishi zarur.

Asosiy qism. Davlat va din munosabatlari hamda uni tartibga solishga doir nazariy qarashlar yuzasidan ko‘plab olimlar fikr bildirishgan. Bu nazariyalarni davriy jihatdan klassik hamda zamonaviy bosqichlarga ajratib mintaqqa olimlariga bo‘lgan holda o‘rganish mumkin. Xususan, g‘arbnинг klassik olimlaridan Tomas Gobbs (1588–1679) “The Social Contract” asarida davlat hokimiyatini din ustidan ustuvor deb hisoblagan va dinni tartibga solish davlat barqarorligi uchun zarur ekanini ta’kidlagan bo‘lsa, Jon Lokk (1632–1704) “A Letter Concerning Toleration” asarida diniy bag‘rikenglik g‘oyasini ilgari surib, diniy sabab orqali quvg‘in qiladigan va azoblaydigan hatto qatl qiladiganlarga qarshi chiqadi va mazhablar orasidagi bo‘linishlar insonlar erkining cheklanishiga sabab bo‘lmasligi kerakligini, davlatning din masalalariga aralashishi esa eng minimal darajada bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. U diniy erkinlikning shaxsiy huquq ekanligini bildirib uni himoya qilgan. Yuqorida fikrlarni albatta to‘liq oqlab yoki qoralab ham bo‘lmaydi. Chunki har bir davr va jamiyatning kayfiyati o‘ziga xosdir. Har ikki qarash ham asosli va o‘rinli hisoblanib din davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatar ekan, albatta davlat ham diniy masalalarni nazorat qilishi tabiiy. Faqatgina hokimiyat xavfsizligi nuqtai nazaridan emas balki aholi ehtiyojlarini qondirish, diniy erkinlikni ta’minalash va o‘zar (dinlararo) tinch va totuv munosabatlarini ta’minalash, diniy tafovut yoki qarama-qarshiliklar nizoli ko‘rinishga aylanib ketmasligini ta’minalash davlatning funksional vazifalaridan hisoblanadi. Chunki din va diniy e’tiqodga bo‘lgan munosabatidan qat’iy nazar, ma’lum davlat hududida yashovchi aholi va fuqaroning huquq va erkinliklari tengligini ta’minalash zarurati davlatning diniy jarayonlarni qonun doirasida nazorat qilishi, kezi kelganda qo‘llab quvatlash va kezi kelganda noqonuniy tashkilotlar tomonidan instrument sifatida foydalanilmasligini ta’minalashni talab etadi. Yirik va uzoq vaqt davom etuvchi nizolarning kelib chiqishiga nafaqat dinlar o‘rtasidagi tafovut balki bir din ichidagi bo‘linish ham sabab bo‘lishi mumkin. Fikrimizni suriyalik olim Qatardagi Arab siyosiy tadqiqotlar markazi (ACRPS) direktori J. Kabalanning bir din ichida mavjud bo‘lgan turli mazhablar o‘rtasidagi tortishuvlarning avj olishi aksar hollarda siyosiy sabablar tufayli yuz bergani haqidagi nazariy qarashlari bilan qo‘llab quvvatlashimiz

mumkin [5]. Olimning fikricha, Yaqin Sharqdagi mazhablararo qarama-qarshilikning keskinlashuvi va to‘qnashuvlar ko‘p asrlik diniy hodisa hosilasi sifatida uni hal qilib bo‘lmaydigandek taasurot qoldiradi. Bu qarash ommaviy axborot vositalarida, siyosiy doiralarda va ba’zi ilmiy doiralarda ham keng tarqalgani va hatto sobiq prezident Barak Obama kabi hokimiyatning yuqori pog‘onasidagi odamlar ham bu fikrni qabul qilgan. Aslida esa, sunniy-shia mazhabi mojarosi zamonaviy revizionistik hodisa bo‘lib, asosan zamonaviy voqealar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog‘liq. Uning ildizlarini 7-asrda islom olamida yuz bergen bo‘linishdan emas, balki 1979-yilgi Eron inqilobidan qidirish kerak ekanini ta’kidlaydi. Doktor Kabalanning ta’kidlashicha inqilobdan keyingi tashqi va ichki voqealar majmui ta’sirida bugungi holat yuzaga kelgan bo‘lib ulardan asosiysi 2003-yilda AQShning Iroqqa kirishi, 2011-yildagi Suriya inqilobi, Yamandagi urush va mintaqada davom etayotgan boshqa mojarolar shular jumlasidan hisoblanib, mazhabparastlik Yaqin Sharqdagi davlatlar qurilishining muvaffaqiyatsizlikka uchrashini, bu esa o‘z navbatida tashqi aralashuvdan darak berishini anglatadi.

Islom olamidagi tendensiyalar va Eron tarixiga e’tibor qaratgan Ingliz olimi Bernard Luis 1967-yilgi Arab-Isroil urushi hamda Eron inqilobidan so‘ng ushbu inqilobning aksari sunniylit mazhabiga e’tiqod qiluvchi arab mamlakatlariga eksport qilishga urinishi ortidan butun mintaqada mazhablararo ziddiyat qo‘zg‘atilgani va 1980-yilgi Iroq E’ron urushining boshlanishiga debocha bo‘lgani haqidagi qarashlarni ilgari suradi [6,7]. Fikrimizcha 1979-yilgi Eron Islom inqilobidan keyin, bu inqilob Iroqdagagi shialarni ham harakatga keltirishidan mintaqada Eronning siyosiy va diniy yetakchiligi kuchayishi Iroq uchun tahdid sifatida qabul qilinib oldini olish choralar sifatida urushga yo‘l ochgan. Kuzatuvlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu din bilan bog‘liq jarayonlar turli yillar va mamlakatlarda sodir bo‘lsada bir xil senariy asosida takrorlanmoqda, aksar hollarda nizolarning tashqi aralashuv sabab kuchayish holati kuzatilgan va muammoning avj olishi tashqi aralashuvsiz uzoqqa bormaydi.

XVI-XVII asrlarda yashab ijod qilgan ingliz faylasufi Tomas Xobbsning ijtimoiy shartnama nazariyasiga ko‘ra insonlar tabiatan bir birlariga nisbatan raqib hisoblanadi va ularni o‘zaro janglardan tiyib turuvchi kuch bu katta haosning vujudga kelishi va hamma tomon uchun ham halokatli natijadir. Shu sababli ham insonlar bir-biri bilan yozilmagan kelishuvga kirishgan degan fikrga asoslangan edi.

Ya’ni, insonlar birbirini o‘ldirib talmasliklari uchun kelishilgan holda, ayrim cheklowlarni umumiyl tan olish va bo‘ysunishlari asnosida davlat vujudga keldi degan nazariyani bildiradi. Buni u ijtimoiy shartnama deb atagan. Tomas Xobbsning qarashlariga ko‘ra ushbu ijtimoiy shartnama nazariyasi jamiyatning gullab-yashnashi uchun zarur edi. Biroq bugungi kun

siyosatchilari va diplomatlari nigohlarini manfaatlar to‘qnashuvidan olib oldinda vujudga kelayotgan umumbashariy muammolarga birgalikda yechim topish yo‘lida birlashishga urinmas ekan. Xobbs nazarda tutgan haos xavfi insonlar darajasidan endilikda davlatlar, millatlar darajasidagi pog‘onaga ko‘tarilgan holda saqlanib qolaveradi. Bu muammolarga yechim sifatida biroz g‘ayrioddiy nazariyalar ham taklif etilgan bo‘lib ulardan biri fransuz olimi Jan Jak Russo o‘zining 1762-yilda nashr etilgan The Social Contract asarida dinning umumiyligini funksiyalarini hisobga olgan holda davlat va din munosabatlarini tartibga solishda fuqarolik dinini joriy qilishni taklif qilgan [8]. U dindan siyosiy barqarorlikni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin deb hisoblagan. Uning fikricha, jamiyat birlik va tartibni saqlash uchun umumiyligini axloqiy va fuqarolik e’tiqodlariga muhtoj hisoblanib, an’anaviy dindan ko‘ra davlat va fuqarolik hayotini qo‘llab-quvvatlovchi “fuqarolik dini”ni taklif qilish asnosida ushbu holatda dinning Xudosi bo‘lishi shart emasligi balki, ijtimoiy shartnomasi va qonunlarning muqaddasligining ta’milanishi kifoya qilishini bildiradi. Agar jamoat tartibiga qarshi bo‘lmasa, boshqa dinlarga nisbatan erkinlik va bag‘rikenglik pozitsiyasini namoyon qilsada fuqarolik dinini rad etgan har bir kishi quvg‘in qilish jamiyatda birlik muhitini shakllantirish mumkin deb hisoblaydi. Umuman olganda u mutlaqo yangi inqilobiy din taklif etgan deb bo‘lmaydi. Balki, dindan aholiga ta’sir ko‘rsatish va hokimiyatga erishish vositasi sifatida foydalanilmasligi va jamiyatning parchalanishiga qarshi birlik g‘oyasini keng yoyilishiga dunyoviy davlat tizimini qo‘llab-quvvatlovchi e’tiqod orqali erishish nazariyasini ilgari surgan deyish mumkin.

Sharq allomalaridan Abu Nasr Muhammad Ibn Tarxon al Forobiy (870–950) “Fozil odamlar shahri” asarida ideal davlat boshqaruvi uchun din va aqlning uyg‘unligi, davlat rahbarining esa dinni chuqur biladigan, adolatli va dono bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Farovon jamiyatni qurishda eng zarur omil hisoblangan axloqiy asos siyosiy jihatdan ham barqarorlikka xizmat qilishini, bu esa dinning tabiiy funksiyasi ekanini bildiriladi.

Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy (Nizomulmulk 1018–1092) esa o‘zining mashhur asari “Siyosatnoma” da jamiyatni boshqarish, siyosiy barqarorlik va davlatning qudratini ta’minalashni bevosita din bilan bog‘liq jarayon sifatida ta’riflaydi. Davlatni idora etishda shar’iy buyruqlarga amal qilish va ilm ahlini e’zozlash shart ekanligi keltiriladi. Haftada bir ikki marotaba din ulamolarini huzuriga chaqirishi va qur’on tafsiri va hadislardan xabardor bo‘lib turishi, ulamolarni esa bahsu munozaraga buyurishni talab qilish orqali davlat rahbarining bid‘at va fitna tarqatuvchilar tomonidan aldanmasligi ta’milanishini bildiradi. Uning qarashlariga ko‘ra ulamolar davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutuvchi shaxslar hisoblanib, davlat yoki viloyat rahbarining boshqaruv faoliyati diniy legitimlik orqali mustahkamlanadi.

Rahbarning dinga amal qilib,adolatli bo‘lishi xalqning itoatini ta’minlaydi va davlat barqaror bo‘ladi. Diniy aqidaparastlikni qat’iy tanqid qilib, barqaror e’tiqodni himoya qiladi [9].

Boshqa ko‘plab sharq allomalari tomonidan diniy qadriyatlarga tayanilmay olib borilgan siyosat zulmga, siyosiy boshqaruvsiz esa dinning zaiflikka yuz tutishi, bu ikki tushuncha ajralmas ekani, din davlatni birlashtira oluvchi va hokimiyatning uzoq umir ko‘rishi hamda adolatni ta’minlashda eng yaxshi motiv bo‘la olishi bildiriladi.

Agar meyoriy huquqiy jihatdan din va siyosiy boshqaruvsiz munosabatlari to‘g‘ri tartibga sola olimsa, diniy ta’lim berish davlatning homiylik va nazorati asosida aholining talablarini qondira olsa dinni niqob qilgan holda siyosiy maqsadlarini amalga oshirishning har qanday ko‘rinishidan qaytmaydigan tomonlarning tahdidiga o‘rin qolmaydi. Albatta bu fidoiy kadrlar tayyorlash va ustoz shogird an’alarini samarali tashkillash masalasini yuzaga chiqaradi.

G‘arb tajribasidan ko‘rish mumkinki davlat barqarorligini ta’minlashda sekulyarizmga alohida e’tibor berildi. Davlat va din munosabatlaridagi oltin me’yorni taminlash yuzasidan qonunchilik tadqiqotlari olib borildi. Din davlatdan ajratildi va har ikki tomonning ham bir biri oldidagi majburiyatlar qadriyatlardan kelib chiqqan holda eng optimal shaklda belgilab qo‘yildi. Davlat va din munosabatlarini ajratish jarayonlari har bir mamlakatning individualliklaridan kelib chiqqan holda turlicha yuz berishi mumkin. Bunga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida aholining dindorlik darajasi qay holatda ekani va mavjud hokimiyatdan norozilik kayfiyati va bunga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi va ichki aktorlarning diniy omildan foydalana olish imkoniyatlarini keltirish mumkin. Davlatlar o‘z mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlashi uchun mavjud sharoitdan kelib chiqib preventiv choralar ishlab chiqadi. Jamiyatdagi diniy omil ham shular jumlasidandir.

Aytish mumkinki davlat va din munosabatlarining barqaror va har ikki tomon uchun ijobiy ahamiyat kasb etishi va farovonlikni ta’minlanishi uchun yangi din yaratish emas, mavjud ilohiy dirlarning asoslarini insonlarga yetkaza olish kifoya qiladi. Chunki ilohiy dirlarning asosida faqatgina ezgulikka targ‘ib mavjud bo‘lib, insonlarni bag‘rikenglikka va birlikka chorlaydi. Insonlar ma’naviy ehtiyojlarini dinnig insonparvarlik va ezgulikka doir ko‘rsatmali orqali boyitishning bugungi kunda naqadar dolzarb va ahamiyatli masala ekanligini, sekin-asta lekin samarali natija berishi haqida ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasidagi o‘rn shargshunos N.Karimov tomonidan aniq misollar asosida yoritilgan [10]. Jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarish orqali siyosiy maqsadlariga erishishni ko‘zlagan tomonlar aksar hollarda yoshlarning qarashlari va e’tiqodlariga ta’sir ko‘rsatishga urinishadi. Siyosiy hokimiyat va dinning uyg‘unligini “diniy davlat” qurish orqali ta’minlash hamda farovonlik va adolatni va’da qiluvchi kuchlar diniy boshqaruvsizdagi ko‘pgina mavhumlikdan ustalik bilan foydalanishni

o‘z oldlariga maqsad qilib olgan. Dunyoviy davlat va ateistik boshqaruv iborasini go‘yoki bir ramkada tasvirlash orqali xalqning hissiyotlarini qo‘zg‘ashga urinishadi. Ayniqsa bu kabi harakatlar bugungi ijtimoiy tarmoqlar shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda keng tus oldi. Ommaga ma’lum blogerlar qatoriga diniy kontentlar tayyorlash orqali kirib o‘zining salmoqli kuzatuvchilariga ega bo‘lgan diniy blogerlar paydo bo‘ldi. Buni albatta quvonarli holat sifatida baholash mumkin. Chunki mediamakonda din omilidan foydalanishni ko‘zlagan tomonlarga ilmiy asoslangan raddiyalar orqali javob qaytaruvchi va tarmoq foydalanuvchilarida immunitet hosil qilishga xizmat qiluvchi milliy platformaning mavjudligi bugungi kun talabidir.

Lekin, virtual olamda mujahidligu mujtahidlikka da’vo qiluvchi ayrim nozik va ixtirofli masalalarni ko‘tarish orqali omma e’tiborini tortishga urinib uchinchi tomon manfaatlariga xizmat qiluvchi shaxslar hali diniy bilim va dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarning diqqatini o‘ziga qaratish yo‘lida faol harakat qilmoqda. Bu kabi soxta kiber ulamolar jamiyatda mavjud muammolarga yechim sifatida diniy davlat qurish fikrini ilgari surish, eski halifalik boshqaruviga qaytish kabi targ‘ibotlarni ilgari surishmoqda. Bugungi kun ziyoli qatlami oldida turgan asosiy vazifa ham dunyoviy va diniy boshqaruv orasidagi farqlarni hamda hamkorlikni ochib berish orqali ommaga kerakli ma’lumotlarni taqdim etish hisoblanadi. Bulardan tashqari targ‘ibot va g‘oyalarga qarshi g‘oyalarni OAV orqali, ayniqsa keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borilishini tizimli yo‘lga qo‘yish lozim. Kiberolamda g‘oyaviy tahdidlarga qarshi ilmiy raddiyalar bilan javob qaytarib ommani ogohlik va to‘g‘ri yo‘lga chorlab turuvchi zamonaviy texnologiyalar va internet (onlayn platformalar) orqali asosli diniy bilimlarni tarqatish, tafsir qilish va muhokama qilish bilan shug‘ullanuvchi kibermujtahidlarni taylorlash va qo‘llab quvatlash choralarini ishlab chiqish lozim. Ushbu faoliyat Markaziy Osiyo mamlakatlarining har birida tizimli yo‘lga qo‘yilishi va umumiyligi markaz tashkil qilish orqali Markaziy Osiyo miqyosida umumlashtirilishi lozim. Shu yo‘l bilan umummintaqavyi pozitsiya shakllantiriladi. Mintaqalari orasida diniy diplomatiyani qo‘llagan holda Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari o‘rtasida iliq kayfiyatni shakllantirish kelajakda ko‘plab nizoli holatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Din jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va shakllantiradi. Davlat boshqaruvi va geosiyosiy jarayonlarda dinning roli turli mintaqalarda turlicha namoyon bo‘lsada, uning ijtimoiy barqarorlikni va insonlararo integratsiyani ta’minalashdagi roli mintaqasidan qat’iy nazar o‘xshashdir. Davlatlar o‘z mustaqilligi va xavfsizligini ta’minalash uchun mavjud sharoidan kelib chiqib preventiv choralar ishlab chiqishi bugungi davr talabi hisoblanadi. Bugungi global holat va qutblararo munosabatlar

natijasida shakillangan vaziyat Markaziy Osiyo uchun integratsiyalashuv imkoniyatini vujudga keltirdi. Markaziy Osiyo uchun muammolarga qarshi kurashish va taraqqiyotga erishishda alohida davlatlar shaklida harakat qilishdan ko‘ra mintaqaviy hamkorlik va integratsiya orqali ko‘proq natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. The Guardian (havolaga murojaat qilingan vaqt: 21.05.2025 https://www.theguardian.com/us-news/ng-interactive/2025/feb/27/oklahoma-project-2025-education?utm_source=chatgpt.com)

2, 3. [2] THE CONSTITUTION OF GREECE Revised by Resolution of November 25, 2019 of the IXth Revisionary Parliament

4. Dunyo aholisi demografiyasi bo‘yicha mashxur saytlardan hisoblangan Worldometer taqdim etgan ma’lumotlar MO mamlakatlari rasmiy manbaalaridan biroz faqr qilganligi sababli ma’lumotlarning ishonchli va yuqori aniqlikda bo‘lishini ta’minlash maqsadida mazkur davlatlarining ohirgi rasmiy statistik ko‘rsatkichlariga murojaat etildi:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 37 697 787
(01.04.2025 holatiga <https://www.stat.uz/uz/>)

Qozog‘iston Respublikasi Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi Milliy statistika boshqarmasi 20 316 155

(1-mart 2025 holatiga <https://stat.gov.kz/ru/>)
Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 10.499 mln
(01.01.2025 holatiga <https://www.stat.tj/ru/>)

Turkmaniston Davlat statistika qo‘mitasi 7 057.8 ming
(17.12.2022 holatiga <https://www.stat.gov.tm/ru/population-census>)

Qirg‘iz Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 7.3 mln
(01.03.2025 holatiga <https://stat.gov.kg/ru/>)

Worldometers sahifasi ma’lumotlari uchun havola (25.04.2025 sanasida ko‘rildi: <https://www.worldometers.info/world-population/central-asia-population/#:~:text=The%20current%20population%20of%20Central,among%20subregions%20ranked%20by%20Population>).

5. Marwan J. Kabalan Middle East Sectarianism: A Symptom to a Cause. Arab Center Washinton DC Jun 1, 2019. Manbaaga murojaat etilgan vaqt 15.05.2025. Havola: <https://arabcenterdc.org/resource/middle-east-sectarianism-a-symptom-to-a-cause/>

6. Bernard Lewis. Iran in history. Princeton University. He delivered his lecture under the auspices of the Mortimer and Raymond Sackler Institute of Advanced Studies at Tel Aviv University, on 18 January 1999.
7. Bernard Lewis. The Return of Islam. Commentary 1976. Islam.
8. Jean-Jacques Rousseau. The Social Contract: Book 4, Chapter 8
9. Nizomulmulk. Siyosatnama (Siyar ul-muluk). Toshkent. Yangi asr avlod, 2008. – 239 b.
10. Karimov N.R. Hakim Termiziy asarlarida ilm an-nafs masalasi. – Toshkent. TDSHU.2025. – 254 b.